

«ASIA ALLIANCE BANK»ATB  
Aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining  
2017-yil 29-sentyabrdagi Qarori bilan  
«TASDIQLANGAN»

**«ASIA ALLIANCE BANK» ATB  
Korporativ etika kodeksi**

## **M U N D A R I J A**

1. UMUMIY QOIDALAR
2. KODEKSNING MAQSADLARI
3. KODEKSNING VAZIFALARI
4. KORPORATIV KODEKSNING QO'LLANISH DOIRASI
5. BANKNING MISSIYASI VA QARASHLARI
6. BANKNING QADRIYATLARI
7. BANK KORPORATIV ETIKASINING ASOSIY TAMOYILLARI
  - 7.1. Qonuniylik
  - 7.2. Xavfsizlik
  - 7.3. Hurmat
  - 7.4. Javobgarlik
  - 7.5. Kasbiy mahorat
  - 7.6. Ochiqlik
  - 7.7. Raqobatbardoshlik va xizmatlar sifati
  - 7.8. Obro‘-e’tibor
  - 7.9. Fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy javobgarlik
8. O‘ZARO FAOLIYAT TURLARI VA TAMOYILLARI
  - 8.1. Davlat organlari va bank nazorati organlari bilan o‘zaro hamkorlik
  - 8.2. Aksiyadorlar bilan o‘zaro munosabatlar
  - 8.3. Mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar
  - 8.4. Xodimlar bilan o‘zaro munosabatlar
  - 8.5. Raqobatchilar bilan o‘zaro munosabatlar
  - 8.6. Ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etish
  - 8.7. Manfaatlар to‘qnashushi
9. BANK XODIMLARINING KASBIY ETIKASI
  - 9.1. Hamkasblar bilan munosabatlar etikasi
  - 9.2. Mijozlarga xizmat ko‘rsatish etikasi
  - 9.3. Bank xodimlarining kiyim-boshi va tashqi ko‘rinishiga qo‘yiladigan talablar
  - 9.4. Bayram tadbirlarini o‘tkazish
  - 9.5. Sovg‘alar va mukofotlar
  - 9.6. Korporativ madaniyat va kasbiy etikani saqlash bo‘yicha Bank xodimlariga qo‘yiladigan boshqa talablar
10. YAKUNIY QOIDALAR
  - 1-ilova
  - 2-ilova

## **1. UMUMIY QOIDALAR**

«ASIA ALLIANCE BANK» ATBning Korporativ etika kodeksi (keyingi o‘rinlarda «Kodeks» deb yuritiladi) «ASIA ALLIANCE BANK» ATB (keyingi o‘rinlarda «Bank» deb yuritiladi) xodimlari rioya qiladigan asosiy ma’naviy-axloqiy qoidalar va kasbiy me’yorlarning majmui hisoblanib, bank xodimlarining faoliyatini, xatti-harakatlarini tartibga soluvchi, ichki va tashqi aloqalarning samarali tizimini vujudga keltiruvchi ichki tashkiliy hujjat vazifasini bajaradi.

## **2. KODEKSNING MAQSADLARI**

Kodeksning maqsadi korporativ xulq-atvor va uslub me’yorlari va an'analarini shakllantirish va kundalik amaliyotga joriy etishdan iborat bo‘lib, ular birgalikda Bankning barqaror faoliyatini ta’minlash, uning nufuzini mustahkamlash va mijozlar ishonchini oshirishga ko‘mak beradi.

Kodeks, shuningdek, bank xodimlarining o‘z xizmat vazifalarini munosib bajarishi va bank xodimlari uchun yagona xulq-atvor standartlarini ta’minlash uchun axloqiy me’yorlar va ishda rioya qilinadigan xulq-atvor qoidalarini belgilaydi.

Kodeksda belgilangan korporativ etika tamoyillari xodimlar egallagan lavozim maqomi va darajasidan qat’iy nazar, Bankning, jumladan, uning filiallarining barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

## **3. KODEKSNING VAZIFALARI**

Kodeksning vazifalari quyidagilardan iborat:

Bankning missiyasi, qarashlari va qadriyatlarini joriy qilish va mustahkamlash;

aksiyadorlar, investorlar, mijozlar, mahalliy davlat hokimiyati hamda boshqaruv va nazorat organlari, raqobatchilar, jamoatchilik, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari bilan munosabatlarda bankning xatti-harakatlari me’yorlari va qoidalarini ishlab chiqish;

murakkab axloqiy vaziyatlarda va manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan holatlarda qaror qabul qilish tartibini belgilash;

Bank xodimlarida o‘z funksional vazifalarini bajarish uchun aksiyadorlar, hamkorlar va mijozlar oldidagi shaxsiy javobgarlik hissini shakllantirish va ularning Bankning e’lon qilingan Missiyasini amalga oshirishdagi rolini anglab yetish.

## **4. KORPORATIV KODEKSNING QO’LLANISH DOIRASI**

Mazkur Kodeks O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, xalqaro me’yorlarning umume’tirof etilgan tamoyillariga, xalqaro amaliyotda qabul qilingan biznes faoliyati va o‘zaro munosabat an'analariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Kodeksda kasbiy etikani tartibga solish kundalik kasbiy faoliyatda amalga oshiriladigan axloqiy talablar va xulq-atvor me’yorlari tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi, jumladan: ichki va tashqi siyosatni, xodimlarning axloqiy tamoyillari, jamoada qulay muhit va kasbiy etika me’yorlarini axloqiy baholash.

Joriy etilayotgan korporativ xulq-atvor tamoyillari va qoidalarini xodimlar tomonidan qabul qilinishi ularning Bank maqsadlari va qonun hujjatlari talablariga sodiqligini tasdiqlaydi.

Belgilangan qoidalarga qat’iy rioya qilish, korporativ qadriyatlar va xulq-atvor me’yorlariga rioya qilish Bank muvaffaqiyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

## **5. BANKNING MISSIYASI VA QARASHLARI**

Bankning missiyasi aholi va tashkilotlarga, jumladan, tadbirkorlik subyektlariga yuqori sifatli bank xizmatlarini taqdim etish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish borasida mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali «ASIA ALLIANCE BANK – Sizning yangi imkoniyatlaringiz» shiorini amalga oshirishdan iborat.

### **Bankning qarashlari:**

bankimiz doimiy ravishda axborot texnologiyalari sohasidagi eng so'ngi yutuqlarni joriy etish va biznes jarayonlarini takomillashtirish orqali mijozlarga keng ko'lamli xizmatlar ko'rsatish bilan O'zbekiston Respublikasi bank xizmatlari bozorida barqaror faoliyat yuritayotgan banklar guruhiga kirishga intiladi;

mahalliy va xorijiy investorlar uchun yuqori investitsion jozibadorlikka ega;

o'ziga olgan o'z majburiyatlarini vijdonan bajaradi, mijozlarga hurmat ko'rsatib, vijdonan ishlaydi;

bank va tijorat sirini tashkil etuvchi maxfiy axborot va ma'lumotlarning saqlanishida ishonchlilikni ta'minlaydi;

biznes doiralarda ijobiy imidj va ishonchli obro'ga ega;

kuchli korporativ madaniyatga ega, xodimlarni yuqori natijalarga erishishga undaydi;

savodli kredit siyosati orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, aholi farovonligini oshirishga ko'maklashadi, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda ishtirop etadi;

xayriya faoliyatini amalga oshiradi.

## **6. BANKNING QADRIYATLARI**

Yaratuvchanlik – Biz mamlakatimizda sodir bo'layotgan ulkan islohotlar davrida yashayapmiz. Har birimizning o'z o'rnimiz bor va u doimo foydali, mas'uliyatli va atrofimizdagilar uchun talabgir bo'lishdan iborat.

Novatorlik - Biz mijozlarimiz ehtiyojlarini qondirish uchun avvalgi avlodlarimiz donoligini bugungi innovatsion yechimlar bilan birlashtiramiz.

Ishonch va adolat – professionalizmga yo'g'rilgan halollik va ishonchlilik jamoamizga xos fazilatlardir.

Bank mijoz uchun - Biz doimo mijozimiz manfaati uchun ishlaymiz.

Jamoaviy ish - Biz faqat birgalikda ishlash orqali natijalarga erishamiz. Mas'uliyatli biznes munosabatimiz muvaffaqiyatga erishishingiz uchun poydevordir.

Vatanparvarlik – Biz jamiyat rivoji uchun tadbirkorlik, xususan, bankimiz zimmasiga yuklangan mas'uliyatni yaxshi tushunamiz.

## **7. BANK KORPORATIV ETIKASINING ASOSIY TAMOYILLARI**

### **7.1. Qonuniylik**

Biz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini hamda O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, Respublika Hukumatining qarorlari, boshqa qonunosti hujjatlarini hurmat qilamiz va ularga rioya qilamiz va buni halol biznesni yuritishda yagona to'g'ri yo'l deb bilamiz.

Biz O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan huquqiy me'yorlarga qat'iy rioxanasi etilishini ta'minlaymiz. Biz halol raqobat qoidalariiga rioxanasi qilish, jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda faol ishtirop etish borasida qat'iy pozitsiyani egallaymiz.

Biz vijdonli mehnatni ma'naviy va moddiy rag'batlantirishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarini qo'llagan holda, mehnat qonunchiligi me'yorlari, xodimlarni mehnatini muhofaza qilish, xavfsizlik va haq to'lash qoidalariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlaymiz.

### **7.2. Xavfsizlik**

Biz Bank, uning aksiyadorlari, mijozlari, hamkorlari, xodimlariga, shuningdek, davlatga nisbatan har qanday noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish uchun barcha choralarни ko'ramiz.

Har bir xodimimiz Bank obro'siga putur yetkazish bo'yicha har qanday urinishlarga qat'iy qarshilik ko'rsatishi, bunday holatlarga toqat qilmaslik hissini kuchaytirishi lozim, deb hisoblaymiz.

Moliyaviy amaliyotlarni amalga oshirishda qonunchilik va qoidalarning buzilishi holatlari to'g'risida ma'lum bo'lgan bank xodimlari, shuningdek, Bank faoliyati bilan bog'liq holda Bank, uning mijozlari, uchinchi shaxslar manfaatlariga real tahdid yetkazilishi xavfi mavjud bo'lgan hollarda bu haqida zudlik bilan xavfsizlik va ichki nazorat xizmatlari rahbarlariga ma'lum qilishlari shart.

### **7.3. Hurmat**

Atrofimizdagи odamlarga, mijozlarimizga, biznes hamkorlarimiz va xodimlarimizga maksimal darajada nazokat va hurmat ko'rsatish kundalik ishimizda biz rioya qiladigan asosiy tamoyillardan biridir.

Biz inson huquq va erkinliklarini millati, dini, ijtimoiy mavqeい, huquqiy va jamovaiy holatidan qat'i nazar hurmat qilamiz va har qanday kamsitish holatlarini qat'ian rad etamiz.

Bank ijodiy va yangicha mehnat qilish uchun shart-sharoitlarni, sog'lom ma'naviy-ruhiy muhitni, qulay mehnat muhitini yaratishga, xodimlarning ishbilarmonlik malakalarini talab etilgan darajasini saqlashga, ularning kasbiy talabgir bo'lishlariga ko'maklashishga intiladi.

Bankni o'z mijozlari va hamkorlari bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishi erishilgan kelishuvlarni bajarish uchun hurmat va majburiyat, shuningdek, har qanday ziddiyatli vaziyatlarni konstruktiv tarzda hal qilish istagi tamoyillariga asoslanadi.

### **7.4. Javobgarlik**

Biz aksiyadorlar oldida Bank faoliyati natijalari uchun, mijozlar oldida – ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifati uchun, hamkorlar oldida – majburiyatlarimizni bajarish uchun, jamiyat va davlat oldida – bank tizimini rivojlantirish va mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qo'shgan hissamiz uchun javobgarmiz.

Ushbu Kodeksda e'lon qilingan vazifa va maqsadlar bizni yagona ishni amalga oshiruvchi yaxlit jamoaga birlashtiradi. Biz bir jamoada ishlaymiz, ammo shu bilan birga, Bankning har bir xodimi o'z ishining natijalari uchun javobgardir.

Bank xodimlari lavozim yo'riqnomalarini to'liq bilishi va shunga mos ravishda benuqson bajarishi, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni halol va vijdonan ijro qilishi, bo'ysunuv qoidalariga rioya qilishi, doimo o'z bilimlarini takomillashtirib borishi va dunyoqarashini kengaytirishi shart.

### **7.5. Kasbiy mahorat**

Xodimlarimizning professionalligi mijozlarimizga taklif qilinadigan Bankning asosiy strategik resursi hisoblanadi.

Ishonchimiz komilki, yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma, amaliy ko'nikmalar, analitik fikrlash qobiliyati, doimiy ravishda o'z ustida ishlash, yangi ish shakllarini izlash va bank xodimlarining shaxsiy tashabbusi belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan ajralmas omillardir.

Bank doirasida ham, undan tashqarida ham xodimlarni o'qitishning puxta o'ylangan tizimi orqali o'quv tadbirlari va treninglarda ishtirot etishni vijdonan mehnatni rag'batlantirishning samarali shartlaridan biri deb bilamiz.

Bank yetakchi mahalliy va xorijiy banklar tajribasini o'rgangan holda professional malaka oshirish, eng yaxshi bank ishlanmalarini izlash va amaliyotga tatbiq etishni rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Bank xodimlarning malakasi va kasbiy mahoratining zarur darajasi mayjudligini, jumladan, ularning malaka talablariga muvofiqligini nazorat qiladi.

## **7.6. Ochiqlik**

Bank faoliyatining o'z aksiyadorlari, hamkorlari, mijozlari, xodimlari, davlat va nazorat organlari uchun ochiqligi va shaffofligi Bankimizning uzoq muddatli samarali faoliyat yuritishining zarur sharti, deb hisoblaymiz.

Biz Bank to'g'risidagi moliyaviy ahvolni baholash va kelgusida rivojlanish istiqbollariga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning oshkor etilishi manfaatdor tomonlarda uning ishonchliligi va halolligiga ishonchni shakllantirishga katta hissa qo'shishiga sodiqmiz.

Biz mijozlarni ularning iltimosiga binoan va o'z tashabbusimiz bilan Bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, ulardan foydalanish shartlari va tartibi, qonun hujjatlari belgilangan Bank ishidagi o'zgarishlar to'g'risida xabardor qilamiz.

Axborotni oshkor qilishda Bank quyidagi asosiy tamoyillarga amal qiladi:

axborotni oshkor qilish tartibini tartibga soluvchi amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish;

aksiyadorlar, mijozlar va boshqa manfaatdor shaxslarga axborot taqdim etishning muntazamligi, samaradorligi va ishonchliligi;

Bank to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi va ularning tijorat manfaatlariga rioya etilishi (shu jumladan, bank va tijorat sirlarini tashkil etuvchi ma'lumotlarni himoya qilish) o'rtaсидаги оқилона мувозанатни та'minlash.

Bank mijozlar, hamkorlar, mahalliy hokimiyat vakillari bilan munosabatlarni tenglik va ochiqlik asosida quradi.

Shu nuqtai nazardan, o'z oldimizga moliyaviy-bank ma'lumotlari darajasi va sifatini oshirish, yetakchi mahalliy va xalqaro reyting tashkilotlari talablariga muvofiq keng foydalanish imkoniyatini ta'minlashni o'z vazifamiz deb bilamiz.

## **7.7. Raqobatbardoshlik va xizmatlar sifati**

Biz Bankning kadrlar, texnologik, moliyaviy, iqtisodiy va boshqa resurslarini malakali birlashtirish orqali taqdim etilayotgan xizmatlarning yuqori raqobatbardoshligiga erishishga intilamiz.

Biz o'z ishimizni doimiy ravishda takomillashtirib, unga innovatsion, kreativ yondashish, zamonaviy shakllardan foydalanish va Bankning yanada samarali ishlashi uchun yangi usullarni izlash orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha amaliyotlarning qonuniyligini ta'minlaymiz.

Xizmatlarning yuqori sifati va mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini muvaffaqiyatning eng muhim omillari deb hisoblab, biz «Mijoz Bank uchun emas, Bank mijoz uchun» bank tamoyilini amalda tatbiq etishga intilamiz.

Mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish bankning istisnosiz barcha xodimlarining asosiy vazifasi va burchidir. Biz eng yuqori milliy va xalqaro standartlarga javob beradigan sifatga erishishga, taklif etilayotgan moliyaviy yechimlarning ishonchliligining eng yuqori darajasini saqlab qolishga intilamiz.

## **7.8. Obro'-e'tibor**

Biz bankning benuqson obro'si har bir xodimning xulq-atvori va imijiga bog'liq ekanligidan kelib chiqqan holda qaror qabul qilamiz. O'z navbatida, har bir xodimning xulq-atvori va imiji alohida tarzda boshqalar oldida Bankning umumiyligi qiyofasini shakllantiradi, mijozlar, biznes hamkorlarimizning ishonch darajasiga ijobjiy ta'sir qiladi va uzoq muddatli hamkorlikka intilishiga hissa qo'shadi.

Shu munosabat bilan biz bankka yuqori malakali va mas'uliyatlari xodimlarni tanlash va jalg'etish bo'yicha olib borilayotgan kadrlar siyosatini bankning moliyaviy xizmatlar bozorida obro'-e'tiborini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri deb hisoblaymiz.

Bankning ishonchli obro'si ko'p jihatdan bir jamoada ishlashga intiladigan, o'rnatilgan korporativ uslub va an'analarni birdek idrok etadigan va qo'llab-quvvatlaydigan ishonchli, hamfikr odamlarning ahil jamoasini shakllantirish muvaffaqiyati bilan belgilanadi.

Muloqotning majburiy ishbilarmonlik uslubi va xodimlarning tashqi ko'rinishini Bankning kasbiy imiji va obro'sini ta'minlaydigan boshqa omillar bilan bir qatorda qaraymiz.

Bizda yuksak fidoyilik, jamoaviy va samarali mehnat ko'rsatishga intilayotgan xodimlarning odobi va halolligi bilan erishilgan obro'-e'tibori bilan faxrlanishga barcha asoslarimiz bor.

Biz o'z obro'imizni qadrlaymiz va shuning uchun qonunchilik, axloqiy me'yorlar va kasbiy qoidalariga rioya qilmayotgan shaxslarni, shuningdek, moliyaviy-xo'jalik faoliyati uni tahlil qilish va baholash borasida Bank uchun ochiq bo'limgan shaxslarni mijoz sifatida qabul qilmaymiz.

### **7.9. Fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyat**

Biz O'zbekiston Respublikasida yashaymiz, ishlaymiz va bundan juda faxrlanamiz. Biz, boshqa aksiyador-tijorat va tadbirkorlik tuzilmalari singari, jamiyatimizning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanamiz.

Kreditlash sohasini rivojlantirishni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning eng muhim vositasi sifatida hisobga olgan holda, bank aholi bandligi va farovonligini yanada oshirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda faol ishtirot etadi.

Soliqlar va byudjetga boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq to'lash jamiyat oldidagi burchimizni bajarish va O'zbekiston Respublikasi bank tizimining ishonchli faoliyat yuritishining muhim sharti bo'lib, bu o'z navbatida, mamlakatimizda turmush darajasini, bank tizimi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Biz o'z faoliyatimiz natijalari uchun mas'uliyatni o'z zimmamizga olamiz, ijtimoiy keskinlikni kuchaytiradigan harakatlarni oldini olamiz, o'zimizning muntazam moliyaviy barqarorligimizni ta'minlaymiz.

Bank biznesning jamiyat oldidagi mas'uliyat darajasini chuqr anglab, xayriya va homiylik faoliyatida faol ishtirot etadi.

Iqtidorli yoshlarni, bolalar sportini qo'llab-quvvatlash, bolalarga (jumladan, nogironlar, yetim bolalar, tarbiyasi qiyin o'smirlar), faxriylarga ko'maklashish, san'at va madaniyat sohasiga homiylik ko'rsatish Bankning ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Bankning ijtimoiy dasturlari nostandard yechimlari va samarali amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. Biz xayriya faoliyatini mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish yo'llaridan biri deb bilamiz.

## **8. O'ZARO FAOLIYAT TURLARI VA TAMOYILLARI**

### **8.1. Davlat va bank nazorati organlari bilan o'zaro hamkorlik**

Bankni strategik rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda banklarni isloh qilish va bank-moliya tizimi barqarorligini oshirish bo'yicha belgilangan davlat siyosati doirasida belgilanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ijobiy natijalari, ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar, sud-huquq tizimi takomillashtirayotgani, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoit bank ishini rivojlantirishni yanada yuksaltirishning ishonchli sharti bo'lib xizmat qilmoqda.

Biz davlat organlari va bank nazorati organlari bilan munosabatlarmizni «Davlat manfaatlari – bizning ham manfaatlarmiz» tamoyili asosida quramiz.

Biz o‘zimizni Bankning ustav faoliyatiga rioya etilishini nazorat qiluvchi davlat organlari bilan doimiy hamkorlikda ko‘ramiz.

Bank davlat organlari va bank nazorati organlari bilan maslakdosh sifatida munosabatlarni ochiqlik, tenglik va hamkorlik shartlari asosida o‘rnatgan holda quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

moliyaviy xizmatlar bozorining bank sektorini davlat tomonidan tartibga solish organini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

qonun hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa davlat organlarining litzenziyalash talablariga nafaqat normativ talablarni, balki fuqarolik burchini tuyg‘usini ham amal qilgan holda qat’iy va o‘z vaqtida rioya etish;

soliqlar va byudjetga boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lash;

davlat organlari mansabdor shaxslari tomonidan yuridik xarakterdagи qarorlar qabul qilinishiga shaxsiy manfaatdorlik ko‘rsatmaslik va jumladan, pora berish yo‘li bilan hech qanday ta’sir ko‘rsatmaslik.

## **8.2. Aksiyadorlar bilan o‘zaro munosabatlar**

Bizning aksiyadorlarimiz – Bankga nisbatan ma'lum huquqlarga ega bo‘lgan Bank egalari biznesimiz tashabbuskori va tashkilotchisi sanaladi.

Aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, ularga qonun va Ustavga muvofiq o‘z huquqlarini amalga oshirish uchun real imkoniyat yaratish Bank faoliyatining asosiy tamoyillaridan biridir.

Jamoamizning birgalikdagi sa'y-harakatlari aksiyadorlar ishonchini mustahkamlash, investitsiya jozibadorligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, barqaror moliyaviy tayanch va bank rentabelligini saqlashga qaratilgan.

Aksiyadorlarning huquq va majburiyatları, bank Kengashi a'zolarining vazifa va vakolatlari, ularning ishlash tartibi «Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari, Bank Ustavi va ichki hujjatlari bilan belgilanadi.

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib, quyidagi majburiyatlarni zimmamizga olamiz:

bank aksiyadorlarining teng huquqlarini hurmat qilish va ta'minlash hamda ularning manfaatlarini himoya qilish;

sarmoyalangan kapital va investitsiyalar rentabelligini kafolatlaydigan boshqaruv va korporativ boshqaruvning yuqori darajasini ta'minlash;

bankni boshqarish va uning ustav faoliyati bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan munosabatlarga ishonchni mustahkamlashga ko‘maklashish;

bank ichida amaldagi nazorat tizimini saqlab turish, bankdagi ishlarning holati va uning mijozlar va hamkorlar bilan munosabatlari to‘g‘risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish, bank operatsiyalarini tavakkalchilikning maqbul darajasida amalga oshirish;

aksiyalarga egalik huquqini tashkil etish va ro‘yxatga olish, aksiyadorlar ro‘yxatini yuritish va uning tartibini ta'minlash masalalarida qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga qat’iy rioya qilish;

Kuzatuv Kengash va Bank boshqaruv organlari faoliyatini rag‘batlantirish, ularning qarorlarini amalga oshirish.

## **8.3. Mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar**

Bankimiz mijozlarning keng doirasiga moliyaviy va bank xizmatlarini ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, bank strategiyasi doimiy ravishda mijozlar bazasini kengaytirish va ularga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishdan iborat.

Biz «Hurmat, halollik va ochiqlik» tamoyili asosida hamkorlikni yo‘lga qo‘yan mijozlar bilan barqaror va ishonchli munosabatlar o‘rnatishni maqsad qilganmiz.

Bizning jamoamiz:

mijozlariga o‘z xizmatlari, moliyaviy imkoniyatlari, ichki va jahon bozor sharoitlari, foydalanilayotgan bank texnologiyalari to‘g‘risida o‘z zimmalariga olgan o‘zaro majburiyatlarning tavakkalchilik darajasini baholash uchun yetarli miqdorda to‘liq ma‘lumot beradi;

hisob-kitob, kassa-kredit amaliyotlarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshiradi, banklarda hisob raqamlarini ochadi, boshqa xizmatlar ko‘rsatadi va ularning qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini kafolatlaydi;

har bir mijozning manfaatlarini himoya qiladi, har qanday kamsitish shakllarining namoyon bo‘lishini va subyektiv omillarga asoslangan asossiz imtiyozlar, afzalliklar berishni istisno qiladi;

amaliyotlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va mijozlarning hisobvaraqlari holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning himoya qilinishini ta‘minlaydi, faqat O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ularning oshkor etilishiga ruxsat beradi;

yuzaga kelayotgan bahsli va ziddiyatli vaziyatlarni tezkorlik bilan ko‘rib chiqadi, ularni konstruktiv va murosasiz hal qilishga hissa qo‘shadi;

huquqiy me’yorlar va bank qoidalarini qo‘llash bo‘yicha malakali tushuntirish ishlarini olib boradi.

Xodimlar mijozning bexabarligi (yoki layoqatsizligidan) yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishda Bank manfaatlari yoki shaxsiy maqsadlarida foydalanmaydi.

Bank mijozlarning lozim darajada bo‘laman bank xizmatlari bilan bog‘liq da‘volarini o‘z ichiga olgan murojaatlarini diqqat bilan ko‘rib chiqadi va ularga o‘z vaqtida javob beradi.

#### **8.4. Xodimlar bilan o‘zaro munosabatlar**

Bank o‘z xodimlarini malakasi va kasbiy mahorati, odobliligi va intizomi uchun qadrlaydi. Bank o‘z xodimlari bilan munosabatlarni hamkorlik, o‘zaro hurmat va zimmasiga olgan majburiyatlarni qat‘iy bajarish tamoyillari asosida quradi.

Bank har bir xodimga o‘z shaxsiy ijodiy qobiliyatları va kasbiy fazilatlarini o‘z-o‘zini takomillashtirish va kasbiy ko‘nikmalarini oshirish bilan birgalikda yuqori darajada oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Bank o‘z xodimlariga nisbatan kamsitishning har qanday shaklini istisno qiladi.

Bankning barcha xodimlariga ishga qabul qilish, keyingi yuqori martabaga o‘sishi, malaka oshirishlarga tanlab olish, mehnat sharoitlari, xavfsizlik, ish haqi, malaka va ish faoliyatiga qo‘shgan real hissasiga muvofiq moddiy haq to‘lash, mehnat qonunchiligi va ijtimoiy qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar bo‘yicha Bank ijtimoiy dasturlarida belgilangan teng imkoniyatlar taqdim etiladi.

Ushbu muammolarni hal qilishda hal qiluvchi omillar faqat xodimning kasbiy mahorati, vijdonliligi, shaxsiy salohiyati va fidoyiligi hisoblanadi.

Bizning intilishlarimiz xodimlarning jamoaning muvaffaqiyatli ishlashiga shaxsiy qiziqishlarini oshirishga va ularning korporativ qadriyatlarga va Bank missiyasini bajarishga samimiy daxldorligini shakllantirishga qaratilgan.

Ushbu Kodeksda e’lon qilingan axloqiy, ishbilarmonlik xatti-harakatlari va korporativ madaniyatning buzilishiga toqat qilib bo‘lmaydi. Bank xodimlari bilan muloqot qilishda, rahbariyat bilan o‘zaro munosabatlar, qoida tariqasida, bevosita rahbar orqali amalga oshirilganda bo‘ysunuv tamoyiliga rioya qilish tavsija etiladi, bevosita rahbarlarning harakatlariga e’tiroz bildirish hollari bundan mustasno.

Bank xodimlarning bank hayotidagi faol ishtirokini olqishlaydi, bu korporativ madaniyat va ichki hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

E’lon qilingan tamoyillar bilan bir qatorda, Bank xodimlardan quydagilarni talab qiladi:

ichki mehnat qoidalariga, xizmat vazifalariga va bankning boshqa ichki hujjatlari qoidalariga rioya qilish;

Rahbariyat ko'rsatmalari va topshiriqlarini bajarishga mas'uliyat bilan yondashish va o'zini doimiy ravishda takomillashtirish;

aksiyadorlar, mijozlar va sheriklarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun kasbiy bilim, tajriba va ko'nikmalardan foydalanish, mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan oqilona va mas'uliyatlari harakatlarni amalga oshirish;

bank mulkiga avaylab munosabatda bo'lish;

mijozlarning omonatlari va hisobvaraqlari to'g'risidagi, bank yoki tijorat sirini tashkil etuvchi boshqa ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlash;

kasbiy etikaga, korporativ madaniyat qoidalariga rioya qilish, ushbu Kodeksiga muvofiq bankning shaxsiy nufuzi va obro'sini saqlash;

Bank quyidagilarni ta'minlaydi:

xodimlar oldidagi qonun hujjatlaridan va mehnat shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni qat'iy bajarish;

ish hajmi, munosib ish haqi darajasi, normal va xavfsiz mehnat sharoitlari;

faqat qonunchilik hujjatlari, ichki hujjatlari va raqobat shartlari bilan cheklangan xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, shuningdek, Bank faoliyatidagi o'zgarishlar va strategik xarakterdagi qarorlar;

ko'nikma, mahoratni rivojlantirish, ishbilarmonlik malakasini oshirish va o'z-o'zini takomillashtirish nuqtai nazaridan teng huquq va imkoniyatlar;

turli darajadagi kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlar mehnatidan eng katta foyda olish mumkin bo'lgan sohalarda foydalanish;

bank faoliyati natijalariga qo'shilgan real hissani hisobga olgan holda ma'naviy, moddiy rag'batlantirish va vijdonan mehnat uchun rag'batlantirishning turli shakllari, shuningdek, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

## **8.5. Raqobatchilar bilan o'zaro munosabatlar**

Bank raqobatchilar bilan o'z munosabatlarini halollik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida quradi. Biz O'zbekiston Respublikasining monopoliyaga qarshi qonunchiligining so'zsiz bajarilishini ta'minlash, bank-moliya xizmatlari bozorining boshqa professional ishtirokchilari bilan raqobatda nohaq va axloqsiz usullardan foydalanishni to'liq istisno qilgan holda adolatli raqobatlashish majburiyatini zimmamizga olamiz.

## **8.6. Ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etish**

Ommaviy axborot vositalari bilan yuqori darajadagi o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun Bankda vazifa va topshiriqlari tegishli Nizomda belgilangan maxsus bo'lim mavjud.

Bank, uning strategiyasi va bank xizmatlari bozoridagi missiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish masalalarida biz ommaviy aloqalarning turli shakllaridan foydalangan holda barcha ommaviy axborot vositalari bilan muloqot qilishimiz mumkin.

Shu maqsadda o'zaro hurmat, etika va axloqiy me'yorlarga rioya qilish, Bank manfaatlarini himoya qilish shartlarida matbuot anjumanlari, ish uchrashuvlari, davra suhbatlari o'tkazishga, davriy nashrlar, telekuzatuv, radio, shuningdek, oshkor qilinadigan ma'lumotlarga barcha manfaatdor tomonlarning bepul kirishi uchun Internetning keng imkoniyatlaridan foydalanishda hamkorlikka tayyorligimizni bildiramiz.

Biz ochiq rejimda Bankning veb-saytida ([www.aab.uz](http://www.aab.uz)) va Yagona korporativ axborot portalida ([www.openinfo.uz](http://www.openinfo.uz)) Bank, uning boshqaruv organlari, yillik hisobotlarimiz, tahliliy ma'lumotlarni, shuningdek, taklif qilinadigan xizmatlar va foydalilanadigan texnologiyalar haqida ma'lumotlarni e'lon qilamiz.

Biz reklama faoliyatimizda yoki muloqot aloqalari doirasidagi boshqa faoliyatimizda yolg'on ma'lumotlarning tarqalishini, faktlarni yashirish yoki noto'g'ri ko'rsatishni oldini olish majburiyatini o'z zimmamizga olamiz. Xodimlarning ommaviy axborot vositalari bilan barcha aloqalari bevosita Bankning maxsus bo'linmasi orqali amalga oshiriladi.

Bank ijtimoiy harakatlar, siyosiy partiylar va birlashmalarga nisbatan betaraflik tamoyiliga amal qiladi, o‘z faoliyatini aksiyadorlar, omonatchilar va mijozlar manfaatlariga yo‘naltiradi.

Shu bilan birga, Bank o‘z xodimlarini har tomonlama xabardor saylovchilardan bo‘lishi, saylovoldi tashviqotlarida qatnashish va shu tariqa jamiyat va davlat ishlarini boshqarish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish istagini cheklamaydi. Bank xodimlarning shaxsiy, bo‘sh vaqtlarida ijtimoiy va siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini qarshilaydi.

### **8.7. Manfaatlar to‘qnashuvi**

Manfaatlar to‘qnashuvi - bankning (uning boshqaruvi va nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari) moddiy yoki boshqa manfaatlari bilan kreditorlar, kontragentlar va boshqa mijozlarning moddiy yoki boshqa manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyat, agar bu bank boshqaruvi va nazorat organlari va (yoki) uning xodimlari tomonidan aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga yo‘l qo‘yilishiga olib kelgan harakat (harakatsizlik) natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa.

Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish aksiyadorlar va mijozlar manfaatlarini himoya qilishni ta‘minlashning asosiy shartlaridan biridir. Bank xodimlari va rahbariyatining hech biri bu tamoyilni buzmasligi lozim.

Bank manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish muhimligini e’tirof etgan holda, bankda yuzaga keladigan manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va hal etish tartibini belgilab beruvchi «Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda harakatlar tartibi to‘g‘risida»gi Nizomni ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Nizom boshqaruvi va nazorat organlarining a’zolariga va bankning barcha xodimlariga, ularning lavozim darajasidan qat’i nazar, qo‘llaniladi.

## **9. BANK XODIMLARINING KASBIY ETIKASI**

Kasbiy etika - bu ishbilarmonlar va boshqa odamlar, xususan, ishdagi hamkasblar, sheriklar va mijozlar, shuningdek davlat boshqaruvi va nazorat organlarining mansabdor shaxslari bilan munosabatlarning muayyan turini belgilaydigan qoidalar tizimi.

Bank xodiminining kasbiy etikasiga quyidagilar kiradi:

hurmat, tenglik va hamkorlik tamoyillari asosida ish vaqtida ham, rasmiy sharoitda ham, norasmiy xatti-harakatlar sharoitida ham munosabatlarni o‘rnatish;

bank faoliyatiga jalb qilingan biznes jarayonlarining barcha ishtirokchilari uchun huquq va imkoniyatlar tengligini tan olish;

tijorat, bank sirlari va bankning maxfiy ma'lumotlariga taalluqli ma'lumotlarning saqlanishini ta‘minlash qoidalariiga qat’iy rioya qilish;

xolislik va halollik, barcha noxolis va nodo‘stona munosabatlarni, yolg‘on ma'lumotlardan foydalanishni to‘liq istisno qilish;

kasbiy nufuzi va shaxsiy obro‘sini saqlab qolish.

### **9.1. Hamkasblar bilan munosabatlar etikasi**

Bank xodimlari do‘stona, mehmondo‘st bo‘lishlari lozim, chunki har qanday shaklda salomlashish moyillik, yaxshi niyat va ishonchni keltirib chiqaradi.

Shaxsni hurmat qilish tamoyiliga rioya qilish Bank rahbariyati uchun ham, boshqa xodimlar uchun ham bir xil darajada majburiydir.

Bankning barcha xodimlari o‘zlarining nutqlari va hamkasblari bilan muloqot qilish uslubini diqqat bilan kuzatib borishlari lozim.

Hamkasblar o‘rtasidagi muloqot muloyim ohangda qurilishi va faqat ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otishi lozim. Muloqotda salbiy reaksiyani har qanday shaklda ifodalash mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas.

Biz muloqotda qo‘pollik, badfe’llikni qabul qilmaymiz va xodimlarimizning yomon odatlarini ma’qul ko‘rmaymiz, shu munosabat bilan barcha bank xodimlariga istisnosiz quyidagilar qat’iyan man etiladi:

baland ovozda gapirish, o‘zaro da’volarni bildirish va turli xil gap talashish, shaxsiy munosabatlarni ochiqlash, amaliyat, kassa sektorlarida, bankning mijozlarni qabul qiluvchi va ularga xizmat ko‘rsatadigan boshqa tarkibiy bo‘linmalarida ziddiyatli vaziyatlarni vujudga keltirish;

xizmat xonalarida chekish va spirtli ichimliklar ichish, chekish faqatgina maxsus ajratilgan joylarda ruxsat beriladi.

Xodimlarning bir-biriga bo‘lgan har qanday da’volari, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari bilan nizolar xodimlar bilan ishlash xizmati rahbari orqali rahbariyatga ma’lum qilinishi lozim. Xodimlarning bank rahbariyatining xatti-harakatlariga bildirgan mulohazalari yoki noroziligi to‘g‘risida Bank Kuzatuv Kengashi vakiliga ma’lum qilinadi va u ularni Bank Kuzatuv Kengashi raisiga ma’lum qilinadi.

Nizoli vaziyatlarni hal qilishda Bank Boshqaruvi Raisi, Bank Kuzatuv Kengashining korporativ maslahatchisi, Bank kasaba uyushma qo‘mitasi raisi, xavfsizlik va xodimlar bilan ishlash boshqarmasi rahbarlari ishtirok etadi.

Salbiy shov-shuvni keltirib chiqarishi yoki Bankning obro‘siga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan qonunchilik buzilishi belgilarini o‘z ichiga olgan nizolar yoki huquqbuzarliklar faktlari bo‘yicha bank ichki tekshiruvi o‘tkazilib, natijalari Bank Kengashi raisiga ma’lum qilinadi.

## **9.2. Mijozlarga xizmat ko‘rsatish etikasi**

Mijozlarga, ularning talab va manfaatlariga e’tibor bilan munosabatda bo‘lish Bank faoliyatining asosiy tamoyillaridan biridir. Bank xodimlarining mijozlarga munosabati mijozlar auditoriyasining Bank to‘g‘risida shakllanadigan fikrini belgilaydi.

Mijozlarning ishonchi Bankning eng qimmatli aktivi bo‘lib, xodimning noto‘g‘ri xatti-harakati yoki o‘zini tutishi natijasida yetkazilgan zarar Bankka ziyon yetkazish deb baholanishi mumkin.

Mijozlarga xizmat ko‘rsatishda xodimlar quyidagilarga majburdirlar:

mijozni tabassum bilan kutib olish va kuzatib qo‘yish;

mijoz bilan uchrashganda, do‘stona salomlashish orqali, mijozni ko‘rishdan xursandlikni va u bilan muloqotda ochiqlik hissini uyg‘otish;

mijozlarga ularning so‘rovlariga zudlik bilan javob berishga tayyorligini ko‘rsatish va lozim bo‘lganda Mijozlarga kutishda qulaylikni ta’minalash;

Mijozning xatti-harakatlari qanday bo‘lishidan qat’i nazar, bank xodimlari tomonidan unga nisbatan xushmuomala va hurmatni ta’minalash, qo‘pollikka yo‘l qo‘ymaslik;

o‘zini xushfe'l tutish, mijozning his-tuyg‘ularini hurmat qilish va uning salbiy his-tuyg‘ulariga berilmasdan javob qaytarish, xodimlar o‘z xatti-harakatlari bilan xotirjamlik va ishonchni namoyish qilishlari lozim;

qonunchilik va bank ichki tartib-qoidalarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlar bo‘yicha mijozlarning takliflarini xushmuomalalik va muloyimlik bilan rad etish.

Xodimlarga quyidagilar qat’iyan man etiladi:

nutqda qo‘pol va haqoratl so‘zlarni ishlatish;

boshqa vazifalarni bajarish uchun, chalg‘imaslik boshqa mijozlarga xizmat ko‘rsatish bundan mustasno;

mijozlar huzurida mijozlarga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan ish masalalarini muhokama qilish:

mijozlarga xizmat ko‘rsatish vaqtida shaxsiy ehtiyojlar uchun mobil telefondan foydalanish;

mijozga rasmiy xarakterdag ma’lumotlarni va xodimlar to‘g‘risidagi shaxsiy ma’lumotlarni taqdim etish.

Xodim mijozning vazifalarini aniq, tez va eng samarali tarzda hal qilishi shart. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish tezligiga professionallik va ishni mohirona tashkil etish orqali erishish

lozim. Xizmat ko'rsatishning yuqori tezligi xizmat ko'rsatish chog'idagi xatolar va badfe'llikni oqlamaydi!

Mijoz bank operatsiyalarini amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelgan taqdirda, bank amaliyotlarini amalga oshirish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirishda Bank xodimlari mijozga uning muammosini hal qilishda yordam berishga tayyor bo'lishlari lozim.

### **9.3. Bank xodimlarining kiyim-boshi va tashqi ko'rinishiga qo'yiladigan talablar**

Bankning har bir xodimi kiyim-bosh borasida Bank nufuziga mos keladigan biznes uslubiga rioya qilishi shart. Xodimning tashqi ko'rinishi bank madaniyati darajasi va didi to'g'risida axborot beruvchi kasbiy nufuzning asosi hisoblanadi.

Korporativ kiyim-bosh uslubi xodimlarni intizomli qiladi, samarali mehnatga e'tiborni qaratadi. Mijozlar va hamkorlar korporativ kiyinish uslubi, xodimlarning ozoda qiyofasi bankning moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va farovonligidan dalolat sifatida qabul qilishlari tabiiy.

O'rmatilgan kiyinish qoidalari (dress-kod)ni korporativ madaniyatning muhim elementi, xodimlarni birlashtiruvchi va rag'batlantiruvchi omillar deb hisoblaymiz.

Joriy etiluvchi korporativ va biznes tashqi ko'rinish jamoaning birdamligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va bank xizmatlari bozorida raqobatdosh ustunlikka ko'mak beradi.

Xodimlarning did bilan tanlangan javoni ijobiy taassurot qoldiradi, ularning kasbiy mahoratliligi va kasbiy fazilatlarini ta'kidlaydi.

Bank xodimlarining kiyim-bosh va tashqi ko'rinishiga qo'yiladigan talablar Kodeksning 1-ilovasida keltirilgan.

Bank xodimining kiyinishda ishbilarmonlik uslubiga ryoa qilmasligi Ichki mehnat tartib qoidalariغا muvofiq mehnat intizomini buzish hisoblanadi va intizomiy jazo qo'llanilishiga olib kelishi mumkin.

### **9.4. Bayram tadbirlarini o'tkazish**

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida belgilangan bayramlar arafasida, shuningdek, Bank tashkil topgan sanada - 15 avgust (korporativ bayram) bayram tadbirlarini o'tkazish korporativ madaniyatni shakllantirish va Bank jamoasini birlashtirishning eng ko'p qabul qilingan va ma'qullanadigan usullaridan biri hisoblanadi.

Bayram tadbirlari Bank binosida ham, bankdan tashqarida ham (jumladan, shahar tashqarisida) o'tkazilishi mumkin. Bunday tadbirlarni ikki qismda, birinchi qismda - tantanali qismda o'tkazish tavsiya etiladi, bunda tabriklar bilan bir qatorda Bank rahbariyati o'zini ko'rsatgan xodimlarni (mukofotlar, sovg'alar, turli esdalik sovg'alarini, faxriy yorliqlar va boshqalar bilan) rag'batlantiradi, ikkinchi qismda, musiqiy hamrohlik bilan ko'ngilochar tadbirlar o'tkaziladi.

Odatda, bayram tadbirlariga faqat Bank xodimlari taklif qilinadi. Ba'zi hollarda, aksiyadorlar, Kengash va Bank boshqaruvi tashabbusi bilan bayram tadbiriga faxriy mehmonlar sifatida boshqa shaxslar taklif qilinishi mumkin.

Bank xodimlarining tug'ilgan kunini nishonlash ham korporativ madaniyat elementlaridan biri va ma'naviy rag'batlantirish usullaridan biri hisoblanadi.

Menejerlarni tabriklash uchun sovg'alar tavsiya etilmaydi, tabrik kartasi, guldasta va ichki pochta orqali tabriklar bundan mustasno.

Boshqa xodimlarning tug'ilgan kunini nishonlash Bankning tarkibiy bo'linmalarida, sovg'alar va esdalik sovg'alarini topshirish – xodimlarning ixtiyori va xohishiga ko'ra o'tkazilishi mumkin. Bunday tadbirlarni o'tkazishda, ishga zarar yetkazmasdan, tug'ilgan kunni nishonlovchining tashabbusi bilan (20-30 daqiqa ichida) ish vaqtidan tashqari, yaxshisi tushlik vaqtida, yengil furshetlar (mevalar, qandolat mahsulotlari va alkogolsiz salqin ichimliklar ko'rinishidagi taomlar) tashkil etishga ruxsat beriladi.

### **9.5. Sovg'alar va mukofotlar**

Xodim bank vakili sifatida o'zining rasmiy vakolatlarini amalga oshirishda faqat Bank manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi shart. Ushbu majburiyat nafaqat mehnat shartnomasi bilan

ta'minlangan harakatlarga, balki mijozlar, davlat organlari vakillari bilan ishbilarmonlik aloqalariga ham taalluqlidir.

Bankning barcha xodimlariga istisnosiz: amaldagi yoki ehtimoliy mijozdan, davlat organi vakilidan yoki boshqa shaxsdan (bevosita yoki bilvosita) Bank tomonidan amalga oshirilgan har qanday amaliyot yoki jarayon munosabati bilan ko'rsatilgan yoki ko'rsatiladigan yordam (yoki amaliy yordam) uchun minnatdorchilik belgisi sifatida to'lov, sovg'alar, ziyofatlar, iltifot, xizmatlar, o'yin-kulgilar yoki shunga o'xshash qiymatga ega narsalarni so'rash yoki qabul qilish taqiqlanadi.

Bank xodimlari Bankdan biron-bir qaror qabul qilishini kutayotgan yoki Bank bilan biznes aloqalarini o'rnatishga intilayotgan har qanday shaxsdan yuqorida taklif yoki xizmatlarni qabul qilishga haqli emas.

Istisnolarga quyidagilar kiradi:

faqat biznes uchrashuvi doirasida ziyofat (tushlik yoki yengil yegulik va ichimliklar);

hech kimdan qarzdor yoki majburiyat his qildirmaydigan hamda Bankni tushummovchilik holatga solmaydigan tabriknomalar, ruchkalar, qalamlar, daftarlari, kalit osgichlar, kalendarlar, kanselyariya to'plamlari va esdalik sovg'alari kabi qimmatli bo'limgan reklama buyumlari.

Bank xodimlari va mijozlari o'rtasida ham bankda, ham Bankdan tashqarida o'z xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'limgan har qanday shaklda aloqa qilish tavsiya etilmaydi.

Noqonuniy xizmatlar ko'rsatish yoki tegishli haq evaziga imtiyozlar berish to'g'risidagi har qanday taklif va ishoralar darhol Bank xavfsizlik xizmatiga xabar qilinishi lozim. Bunday taklif haqida suket saqlash, hatto mukofot qabul qilinmagan taqdirda ham, bank ichki tekshiruvi mavzusiga aylanishi mumkin.

Ushbu qoidalarga rioya qilmaslik Bank xodimi maqomiga to'g'ri kelmaydigan ish sifatida baholanib, intizomiy jazo choralarini qo'llashga olib kelishi mumkin.

## **9.6. Korporativ madaniyat va kasbiy etikani saqlash bo'yicha Bank xodimlariga qo'yiladigan boshqa talablar**

Xodimlar quyidagilarga majburdirlar:

Muloqot doirasini shakllantirishda ehtiyyot bo'lish va shu bilan bank xodimining obro'siga ziyon keltiradigan va putur etkazadigan aloqalardan qochish;

sog'lom turmush tarzini olib borish va spirtli ichimliklarni ko'p iste'mol qilishni, giyohvandlik vositalarini, psixotrop va toksik moddalarni iste'mol qilishni yo'l qo'yib bo'lmaydigan deb sanash;

boshqa tashkilotlar xodimlariga va boshqa fuqarolarga nisbatan biznes uslubi va do'stona ohangni saqlab, professionallik va bosiqlikni namoyish qilish;

bank mulkiga g'amxo'rlik qilish (ofis binolaridagi mebellar, jihozlar, aloqa tizimlari, aloqa vositalari va har xil turdag'i orgtexnika va boshqalar). Axborotni qayta ishlashning elektron vositalari, barcha turdag'i dasturiy ta'minot va xodimlar tomonidan o'z funksional vazifalarini bajarish jarayonida ishlab chiqilgan hujjatlar Bank mulki hisoblanadi;

Bankdagi axborot xavfsizligi qoidalarini, xususan, bank va tijorat sirlarini muhofaza qilish talablarini bilish va ularga rioya qilish.

Bankda ish vaqtida shaxsiy ishlar bilan shug'ullanish, hamkasblarini begona suhbatlar bilan ishdan chalg'itish, norasmiy telefon suhbatlarini o'tkazish va ofis Internetidan notijorat maqsadlarda foydalanish qabul qilinmagan. Xodimlar telefon orqali muloqot qilishda xushmuomalalik va ishbilarmonlik uslubidan foydalanishlari lozim.

Telefon suhbat salomlashish va o'zini tanishtirishdan boshlanishi lozim. Salomlashish suhbatdosha nisbatan ijobjiy tusga ega bo'lishi kerak.

Ish joyida bo'limgan xodimga telefon qo'ng'irog'i bo'lsa, uning hamkasblari qo'ng'iroqni aloqada ushlab turishlari kerak. Telefon qo'ng'iroqlariga 3-chi qo'ng'iroqdan kechiktirmasdan javob berish kerak.

Bankka noutbuklar, planshetlar va boshqa portativ mobil qurilmalarni olib kirish taqiqlanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish va telefon orqali muloqot qilishda Bank nomini

tilga olmaslik, logotipdan, Bank binosi va ofis binolarining fotosuratlaridan, jumladan, korporativ tadbirdardan foydalanmaslik lozim, sport musobaqalari va turistik sayohatlar bundan mustasno.

Ish vaqtida mobil telefonlardan ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish, internet va boshqa mobil ko'ngilochar dasturlardan foydalanish qat'iyan man etiladi. Bankning foye va yo'laklarida boshqalarning e'tiborini tortgan holda qulqchinlardan foydalanishga, shuningdek, mobil telefon orqali muloqot qilishga chekllovlar joriy etiladi.

Xodimlar bo'y sunuv qoidalariga rioya qilishlari shart, jumladan, rahbarlar yoki mehmonlar ish xonalariga tashrif buyurishganda, ularda ishlaydigan xodimlar tik turgan holda kutib olishlari shart.

Bank xodimlari, bank va tijorat sirlariga taalluqli hujjatlar talablariga rioya qilish zarurati bilan bir qatorda, ilgari bankda ishlagan va ishdan bo'shatilgan shaxslar bilan muloqot qilish chog'ida bank va uning xodimlari bilan bog'liq har qanday ma'lumotlarni boshqa shaxsga yetkazishga haqli emas.

Ish joyi toza va tartibli bo'lishi lozim.

Xodimlar ofis anjomlari, ayniqsa qog'oz, shuningdek, elektr va suvdan oqilona foydalanishga harakat qilishlari lozim.

## 10. YAKUNIY QOIDALAR

Ushbu Kodeks Bank aksiyadorlari umumiylig'ilishining qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Xuddi shu kundan boshlab Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan «ASIA ALLIANCE BANK» ATBning 40-sonli Korporativ kodeksi (17.03.2011 yildagi K-8-son bayonnomasi) o'z kuchini yo'qotadi.

Bank xodimlari ushbu Kodeksga 2-ilovaga muvofiq majburiyatni imzolash orqali Bank Kodeksiga rioya qilishlari va tan olinganliklarini tasdiqlaydilar. Ushbu hujjat bilan tartibga solingen qoidalarni tushuntirish uchun xodimlar o'zlarining bevosita rahbarlariga yoki kadrlar bo'limiga murojaat qilishlari mumkin.

Xodimlar tomonidan ushbu Kodeksda e'lon qilingan korporativ standartlar, qoidalar va axloqiy me'yorlarga rioya etilishini nazorat qilish bankning kadrlar bilan ishlash bo'limi va tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan ularga yuklangan vazifalar va funksiyalar doirasida amalga oshiriladi.

Kodeksda belgilangan talablarga rioya qilmaslik intizomiy va moliyaviy jazo choralarini ko'rishga olib kelishi mumkin.

Bank Kengashi va rahbariyati har bir xodim uchun Bankning ahil jamoasida ishslash korporativ g'ururga aylanishiga ishonch bildiradi.

## Bank xodimlarining korporativ kiyinish uslubi va tashqi ko‘rinishiga qo‘yiladigan TALABLAR

### Erkaklar korporativ uslubi:

Erkaklar kostyumiga qo‘yiladigan asosiy talablar – konservativizm, qat‘iylik va rang tusiga rioya qilish hisoblanadi.

To‘q ko‘k va to‘q kulrang tuslar ish kiyim-boshining korporativ tuslari hisoblanadi. Kostyuming uslubi (bir bortli yoki ikki bortli) individual didga bog‘liq, asosiy shart – kostyum xodim qomatiga mos kelishi.

Ko‘ylaklar bir xil tusli va oq bo‘lishi lozim. Ko‘ylakning manjetlari pidjak yenglari ostidan taxminan 1,5-2 sm (ko‘p emas) ko‘rinib turishi lozim.

Bo‘yinbog’ kostyum rangiga mos kelishi va uni uyg‘un ravishda to‘ldirishi lozim. Bunda, bo‘yinbog’ tusiga ko‘ra kostyumga nisbatan to‘q va och rangda bo‘lishi afzal. Ingichka va qisqa bo‘yinbog’lar tavsiya etilmaydi.

Kiyim-bosh uslubiga qo‘srimcha ravishda korporativ belgi ashyolari, masalan, bo‘yinbog’ uchun qisqichlar va Bank logotiplari tushirilgan nishonlar ishlatalishi mumkin.

Paypoqlar qora, silliq, sezilarli naqsh va chiziqlarsiz bo‘lishi lozim. Paypoqlar tovon ochilib qolmaydigan darajada uzunlikda bo‘lishi lozim.

Poyafzallar boshqalarning e’tiborini ko‘proq tortadi va xodimning butun tashqi ko‘rinishini ta‘kidlaydi. Kasbiy uslubimiz uchun tagcharmi ingichka, to‘qa va metall naqshsiz qora yoki to‘q jigarrang klassik poyafzal (mavsumiylikka qarab botinka) tavsiya qilinadi.

Zeb-ziynatdan faqat nikoh uzugiga ruxsat beriladi. Bilaguzuklar va toshli uzuklar maqbul emas.

Sochlар, qo‘llar va soch turmagи parvarishlangan bo‘lishi lozim. Yuz tekis qirilgan bo‘lishi lozim. Parfyumer ayniqsa, o‘tkir hidli vositalardan haddan tashqari foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bahor-yoz mavsumida bir xil rangdagi shimplar, yengli oq ko‘ylak va bo‘yinbog’ taqishga ruxsat beriladi. Eng issiq davrda yengi qisqa va galstuksiz oq ko‘ylaklarga ruxsat beriladi.

### Xotin-qizlar korporativ uslubi:

Bank xotin-qiz xodimlarining kasbiy uslubi va tashqi ko‘rinishiga qo‘yiladigan asosiy talablar parvarish, mutanosiblik, nafislik va maqsadlilik.

Bankning bosh ofis, amaliyot xonalari, old va orqa ofislaridagi xotin-qiz xodimlarining kasbiy uslubi to‘q rangdagi (to‘q ko‘k, to‘q kulrang), qat‘iy uslubdagi kostyumlarni o‘z ichiga oladi, ular quyidagilardan iborat: jaket (pidjak yoki jilet); uzun yengli oq bluzka; uzunligi tizzaning o‘rtasini qoplashi lozim bo‘lgan yubka yoki poychasi poyafzalga etadigan klassik kesilgan to‘q rangli keng shim.

Bahor-yoz davrida yubka kiyish rejalashtirilgan, uning uzunligi tizzaning o‘rtasini qoplashi lozim yoki poychasi poyafzalga yetadigan klassik kesilgan to‘q rangli shim, yengi qisqa oq bluzka.

Tor va qisqartirilgan shimplar, kombinatsiyalangan yubka-shortilar, shaffof bluzkalar va yengsiz va yoqasi o‘ta ochiq bluzkalar kiyish istisno qilinadi.

Kassa xodimlarining kiyim-boshlari (kassa mudiri, kirish va chiqish kassalari, ayrboshlash shoxobchalari cassirlari) front va bek-ofis xodimlarining kiyim-boshlariga mos kelishi lozim.

Qayta hisob-kitob cassasi cassirlarining kiyim-boshlari cho'ntaklarsiz va tortilgan qismlarsiz to'q rangli erkin tushib turuvchi xalatlardan iborat bo'lishi lozim.

Tashqi kiyim bilan rangga mos keladigan chulki Bank xodimlarining majburiy kiyim-boshi sirasiga kiradi.

Oyoq kiyimlarini tanlayotganda, jilosiz teridan tikilgan, o'rtacha poshnali (6-7 sm) to'q rangli (qora, to'q ko'k, to'q jigarrang) tovoni yopiq klassik poyafzal ma'qul hisoblanadi. Poyafzal hech bir qo'shimcha va e'tiborni tortuvchi bezaklarsiz bo'lishi lozim.

Bahor-yoz davrida tovoni yopiq poyafzalning yengil modellarini kiyishga ruxsat beriladi.

Korporativ atributlardan ustki kiyim ohangiga mos keladigan yoki bank logotipining rangi va naqshiga mos keladigan bo'yinbog'lar yoki bo'yinbog'li sharflar (ro'mollar) taqish tavsiya etiladi.

Kosmetika va manikyur mo'tadil, e'tiborni tortuvchi yorqin ranglarsiz bo'lishi lozim. Parfyumeriyadan ortiqcha foydalanishga yo'l qo'yilmaydi, yuzda umuman bo'yoq bo'lmasligi ham ma'qul emas.

Soch turmagi batartib va yaxshi tuzilgan bo'lishi lozim, o'ta hurpaygan va bachkanalik yo'l qo'yilmaydi. Qisqa turmakli sochlар tekis taralgan, uzun sochlар esa to'g'nog'ich taqilgan yoki o'rilgan bo'lishi lozim. Yoyilgan sochlarga ruxsat berilmaydi.

Xotin-qizlarning korporativ uslubi uchun to'plamda, odatda, zargarlik buyumlarining uch turidan ko'p bo'lmasan uzuk, sirg'alar, zanjir (to'g'nag'ich, sirg'a, uzuk) taqishga ruxsat beriladi.

Texnik xodimlar (shu jumladan erkaklar va ayollar) uchun maxsus xizmat kiyim-boshi nazardautiladi. Bunday bo'lmasa, erkin, ammo bosiq tusdagи kiyim-boshga ruxsat beriladi.

Ish haftasida kiyinish qoidalariga (erkaklar va xotin-qizlar uchun) rioya qilish lozim. Istisnolar juma kunlari, shuningdek, bayram arafasi (qisqartirilgan) kunlarda erkin, ammo oqilona kiyim uslubiga ruxsat berilgan. Erkin uslub diqqatni tortadigan naqsh va yozuvlar bo'lgan haddan tashqari yorqin kiyimlarni, shuningdek, jinsi shimplar, shorti va sport oyoq kiyimlar kiyishni nazarda tutmaydi.

**«ASIA ALLIANCE BANK» ATB  
Korporativ etika kodeksiga 2-ilova**

**«ASIA ALLIANCE BANK» ATB korporativ etika kodeksiga rioya qilish  
MAJBURIYATI**

Men, \_\_\_\_\_,

(xodimning familiyasi, ismi va otasining ismi)

\_\_\_\_\_,  
(lavozim va tarkibiy bo'linmaning nomi)

«ASIA ALLIANCE BANK» ATB Korporativ etika kodeksi bilan tanishib, uning mazmunini to'liq tushunib, korporativ qadriyatlarga va unda e'lon qilingan tamoyillarga sodiqligimni tasdiqlab, quyidagilarni o'z zimmamga olaman:

bank faoliyati va kasbiy muomala amaliyotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, xizmat vazifalarimni vijdonan, halol va yuqori professional darajada bajarish, insof va mas'uliyat ko'rsatish;

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlari, bank ustavi va boshqa ichki hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish;

bo'ysunuv, mehnat va ijro intizomiga rioya qilish;

jamoada ishlash, hamkasblar bilan munosabatlarni hamjihatlik, hamkorlik va xayrixohlik asosida qurish, bankning rentabelligi va moliyaviy barqarorligiga erishish;

bankka, davlat manfaatlariga va fuqarolarning huquqlariga zarar yetkazadigan ishlarni bajarmaslik va usullardan foydalanmaslik;

bank yoki tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor etmaslik;

Bankning ishchanlik obro'si va nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday ishbilarmonlik munosabatlari va aloqalariga kirishmaslik, bank manfaatları bilan shaxsiy manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan qochish;

Bankning yuqori obro'sini saqlab qolish to'risida g'amxo'rlik qilish va hech qachon Bank obro'sidan yoki uning moliyaviy, axborot resurslaridan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanmaslik;

Bank mijozlari yoki hamkorlarini Bank xodimini mukofotlashga undamaslik, ulardan shaxsiy maqsadlarda sovg'alar, boshqa moddiy boyliklar yoki xizmatlarni qabul qilmaslik, mening rasmiy faoliyatimga har qanday ta'sir qilish imkoniyatini butunlay istisno qilish;

Kodeks tarafidan Bank xodimlarining kasbiy etikasiga qo'yiladigan talablarga rioya qilish.

«ASIA ALLIANCE BANK» ATBning Korporativ etika kodeksida belgilangan talablarga rioya qilmaslik intizomiy hamda moddiy choralar ko'rlishiga olib kelishidan xabardorman.

\_\_\_\_\_  
(imzo)

«\_\_\_» \_\_\_\_ 20\_\_y